

## Madaniy o'simliklarning vegetativ ko'paytirish yo'llari

Andijon davlat pedagogika instituti  
Tabiiy fanlar fakulteti  
Biologiya yo'nalishi 103- guruh talabasi  
**Turdaliyeva Zarnigor**

### **Annotatsiya**

Madaniy o'simliklarning vegetativ ko'payish yo'llari tahlil qilinadi. Vegetativ ko'payish o'simliklarni genetik jihatdan bir xil bo'lgan yangi navlarni olishda qo'llaniladigan samarali usuldir.

### **Annotation**

The methods of vegetative propagation of cultivated plants are analyzed. Vegetative propagation is an effective method used to obtain new varieties of plants that are genetically identical.

### **Аннотация**

Анализируются способы вегетативного размножения культурных растений. Вегетативное размножение – это эффективный метод используемый для получения новых сортов растений генетически идентичных.

Madaniy o'simliklarning vegetativ ko'payishi o'simliklarning yangi navlarini saqlagan holda , ko'paytirishning samarali va tezkor usulidir. Bu usul o'simliklarning genetic xilma –xilligini saqlash va o'simliklarning navlarini ko'paytirishda keng qo'llaniladi. Vegetativ ko'payish tabiiy va sun'iy ko'payishda amalga oshiriladi.

### **Asosiy qism**

Vegetativ ko'payish deb ona o'simliklarning biron hayotchan qismidan hosil bo'lgan yangi individga aytiladi. Vegetativ ko'payish barcha darajalarda tuzilgan o'simliklarga xos. Gulli o'simliklarda ajraluvchi yon yoki qo'shimcha kurtaklar tufayli vegetativ ko'payish har yili ro'y beradi. Regeneratsiya yo'qotilgan yoki yetishmagan organlarning tiklanishiga , ya'ni o'simlikning biron –bir qismidan to'liq tiklanishiga aytiladi. Klon bitta individdan vegetativ yo'l bilan hosil bo'lgan individlar majmuasi. Partikulatsiya kaudeksli o'qildizli o'simlik individining qismlarga bo'linish

jarayoni. Ajralgan partikula qisqa vaqt yashashi mumkin, chunki bu qarib yemirilish jarayoni. Vegetativ ko'paytirishning eng sun'iy usuli payvandlash yoki transplantatsiya hisoblanadi. Bunda bir o'simlik qismini ikkinchi o'simlikka o'tkazadi. Bu usul bog'dorchilikda keng qo'llaniladi. Lekin payvandlash mavjud bo'lgan navdan ko'paytirish uchun ham qo'llaniladi, chunki bunda barcha sifat belgilari saqlanib qoladi. Parxish qalamchalashning bir turi bo'lib, daraxt va butalarni mana shu yo'l bilan ko'paytiriladi. Bunda novdani bir qismi avval yerga bosiladi va ko'mib qo'yiladi yoki ayri bilan yerga tirab, tuproqqa biriktiriladi, keyin ildiz otgach narigi qismi kesilib tashlanadi. Parxish tabiatda ham uchraydi, masalan qoraqarag'ay, paxta, jo'ka va boshqalarning nam joyga yotib qolgan pastki shoxlari ildiz otish xususiyatiga ega va yangi o'simliklar beradi. Qalamcha odatda, sun'iy ko'paytirish uchun o'simlikning biron organidan kesib olingan qismiga aytiladi, ya'ni qalamcha o'simligining bir qismi.

### **Xulosa**

Madaniy o'simliklarning vegetativ ko'payish yo'llari ularning ko'payishida muhim ro'l o'ynaydi. Bu usul orqali o'simliklar tezda ko'paytirilib, ularning sifatleri saqlanadi. Biroq, vegetativ ko'payishning ba'zi kamchiliklari ham mavjud, shuning uchun u ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Madaniy o'simliklar sohasida vegetativ ko'payishning samarali qo'llanilishi natijasida yangi navlar va hosil olish mumkin, bu esa agrar soha rivojiga katta hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Botanika. O'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi. M.I. Ikromov A.S. Yuldashev.
2. Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi. A. S. Dariyev.
3. Osimliklar aniqlagichi. S. Haliqov U. Prator.